

■ Aks sado

MILLIY TARAQQIYOT YO‘LI: YANGI BOSQICH, YANGI MAQSADLAR

Bugungi shiddatli davr barchamizning zimmamizga katta mas’uliyat yuklamoqda. Bu – Vatan taqdiriga daxldor ekanimizni chuqur anglash va har bir qadamimiz bilan uning ravnaqiga hissa qo‘shishdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar ham bizni shunga da’vat etadi.

Murojaatnomada ta’kidlanganidek, so’ngi to’qqiz yilda el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo’li bosib o’tildi. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, ijtimoiy himoya kengaytirilib, qonun ustuvorligi mustahkamlandi. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda. Va qanchalik og’ir bo’lmasin, boshlangan demokratik islohotlar qat’iy davom ettirilgani, xalqimizning qo’llab-quvvatlashi, yoshlarimizning g’ayrat-shijoati, mahallaning hayotimizdagi o’rni va ta’siri oshayotganligi, odamlarning ongi va dunyoqarashi o’zgarib, el-yurtimiz yanada jipslashgani, tadbirkor, dehqon hamda fermerlarning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o’zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do’stona tashqi siyosat tufayli 2025-yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishildi.

Murojaatnomada tog’-kon va metallurgiya sanoatini rivojlantirish alohida ustuvor yo’nalish si-

fatida belgilandi. Chunki O‘zbekistonning boy mineral xomashyo bazasidan chuqur qayta ishlash asosida foydalanish orqali yangi qiymat yaratish rejalashtirilgan. Xususan, Navoiy viloyatidagi oltin konlarida ma’dan qazib olish bo’yicha qiymati 2 milliard 300 million dollarlik yirik loyihalar amalga oshirilishi ko’zda tutildi.

Bu strategik vazifalar natijasida mamlakatimiz bo’yicha 2030-yilga borib oltin ishlab chiqarish hajmi 175 tonnaga yetadi. Bu ko’rsatkich O‘zbekistonning jahon tog’-kon sanoatidagi o’rnini yanada mustahkamlab, mamlakat iqtisodiyotiga barqaror valuta tushumini ta’minlaydi.

Murojaatnomada iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sanoat salohiyatini oshirish, ekologik muammolarni hal etish, shuningdek, malakali kadrlarni tayyorlash kabi muhim yo’nalishlarga alohida urg’u berildi. Kon-metallurgiya sohasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda Navoiy kon-metallurgiya kombinati

jamoasi ham ulkan mas’uliyatni zimmasiga olib, munosib hisssasi bilan ishtirok etadi.

Ma’lumki, kombinatimiz qimmatbaho metallarni qazib olish va qayta ishlash bo’yicha yetakchi kompaniyalardan bo’lib, davlatimiz iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim o’rin egallab kelmoqda. Bunda, eng avvalo, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Amaliy tajriba ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni qo’llash, mavjud kon va qayta ishlash tarmoqlarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligiga erishish mumkinligini ko’rsatmoqda. Qolaversa, investitsiya va innovatsiyalarni jalb qilish yangi yilda ham izchil davom ettiriladi. Yangi konlarni o’zlashtirish, innovation loyihalarni amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish NKMKning uzoq muddatli strategik maqsadlaridan biri.

Shuningdek, Murojaatnomada ekologik xavfsizlik va “yashil” texnologiyalarni joriy etish muhim ustuvor vazifa sifatida qayd qilindi. Bundan kelib chiqib, sanoatning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish birinchi darajali vazifamiz bo’lib qoladi.

Prezidentimizning “bir bo’lsak, yagona xalq, yagona millat bo’lib harakat qilsak, ko’zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz, men bu yo’lda mard va oliyanob xalqimizga ishonaman”

degan so’zlarida chuqur ma’no va katta ishonch mujassam. Bu da’vat har bir fuqaroni yurt taqdiriga befarq bo’lmaslikka, Vatan ravnaqi yo’lida yelkadosh bo’lib harakat qilishga chorlaydi. Chunki taraqqiyotga erishish, islohotlarni hayotga tatbiq etish, avvalo, jamiyatdagi hamjihatlik va o’zaro ishonchga bog’liq.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar va strategik maqsadlar barchamizdan tarix oldidagi mas’uliyatni chuqur his qilishni, Vatan taraqqiyoti yo’lida fidoyilik va tashabbuskorlik bilan ish olib borishni talab etadi. Yangi O‘zbekistonni barpo qilish, bu faqat davlat siyosatining emas, balki har bir fuqaroning ongli tanlovi va amaliy harakatlariga bog’liq. Shu ma’noda, Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, sanoatni yangi bosqichga olib chiqish, ekologik barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirish yo’lida o’z oldiga qo’ygan vazifalarni siddiqildan bajarishga qat’iy bel bog’lagan. Birlilik, ishonch va hamjihatlik ruhi bilan harakat qilar ekanmiz, albatta, ulkan marralarni zabt etamiz.

Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
Boshqaruvi raisi – Bosh direktori.

(“Xalq so’zi” gazetasi, 2025-yil 31-dekabr)

Ma’lumki, 2025-yilning 26-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasini yo‘lladi. Unda, 2026-yil va keyingi besh yilda bajariladigan vazifalar belgilab berildi. Ayni kunlarda mazkur hayotbaxsh hujjat barcha korxona va tashkilotlar, jumladan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bo’linmalari, kon va zavodlari jamoa a’zolari ishtirokida chuqur o’rganilmoqda.

TARG‘IBOT TADBIRI

Markaziy kon boshqarmasi faollar zalida boshqarma bo’linmalari ishchi-xodimlari ishtirokida Murojaatnomaning mazmun-mohiyatiga bag’ishlangan targ’ibot tadbiri bo’lib o’tdi. MKB Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi rahbari Ilxom Rajabov va MKB Yoshlar yetakchilari kengashi raisi Saodat Boboyorovalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega hujjat ekanligini, unda xalq manfaatlari ifoda etilgan holda, mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari aniq belgilab berilganligini ta’kidladilar. Prezidentimiz Murojaatnomasida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, ta’lim va tibbiyot sifatini yuksaltirish, shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalarida alohida e’tibor qaratilganligini alohida qayd etdilar. Bu muhim hujjatda “Muruntov” konini o’zlashtirishning navbatdagi bosqichi hamda kumush konlari bo’yicha yirik loyihalar amalga oshirilishi, ma’danni qayta ishlash quvvatlari kengaytirilib, 2030-yilgacha oltin ishlab chiqarish hajmi ortib borishi yuzasidan aniq vazifalar ilgari surilgani Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasini yanada unumliroq mehnat qilish hamda yangi marralarni zabt etishga ruhlantirmoqda. Ulkan korxona ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari Murojaatnomada belgilangan vazifalarni sharaf bilan bajarish uchun yangi yilning ilk kunlaridanoq g’ayrat-shjoat bilan mehnat qilmoqdalar.

Aziza IRISOVA.

Bahodir DAVLATOV,
“NKMK” AJ Axborot texnologiyalari va raqamlashtirish bo’yicha direktor.

MUROJAATNOMA – DASTURULAMAL BO‘LADI

Bugungi global raqobat va tez sur’atlarda rivojlanayotgan texnologiyalar davrida har bir soha o’z faoliyatini zamon talablariga mos ravishda olib borishi zarur. Sanoat korxonalari uchun eng muhim yo’nalishlardan biri – raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali joriy etish hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilishda sun’iy aql muhim vositaga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan murojaatnomasida shu masalaga ham e’tibor qaratgani biz kabi soha vakillarini ruhlantirib yubordi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 2025–2030-yillarda mo’ljallangan raqamli transformatsiya hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda. Shu bilan, birga kombinatda to’rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalari

keng qo’llanilib, jumladan sanoat interneti, katta ma’lumotlar tahlili, prediktiv texnik xizmat, aqlli datchiklar va SCADA/MES integratsiyasi, mashina ko’rish kabi yechimlar ishlab chiqarishga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun’iy intellekt ta’sirida dunyoda ish o’rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o’zgarimoqda. Ya-

qin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to’liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo’yicha esa yangi malakalar talab qilinadi”. Shu nuqtai-nazardan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham mamlakatimizdagi eng ilg’or sanoat subyektlaridan biri sifatida raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan.

Keyingi yillarda kadrlar va ilmiy salohiyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan birgalikda sanoat sun’iy intellekti sohasidagi vakolatlarni, tadqiqotlar va loyihalashtirish faoliyati markaziga aylanadigan Sun’iy intellekt laboratoriyasi tashkil etilmoqda. Bu yerda prognozlashning intellektual modellari, operatorlarni qo’llab-quvvatlash tizimlari, optimallashtirish algoritmlari hamda karyer va zavodlarning raqamli egizaklari ishlab chiqiladi.

Ushbu laboratoriya universitetining tadqiqot salohiyati va NKMK muhandislarining amaliy tajribasini birlashtirib, yangi turdagi mutaxassislar –

mashinani o’rganish va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalarini biladigan muhandis-tahlilchilarni tayyorlashni ta’minlaydi. Kelajakda u mamlakatning butun tog’-kon sanoati uchun amaliy sun’iy intellektning tarmoq markaziga aylanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish, bu – kombinatning strategik taraqqiyot yo’lidagi muhim qadamdir. Bu jarayon nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki xodimlar uchun qulay va xavfsiz mehnat muhitini yaratadi. Umuman olganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar sanoatning yangi bosqichga ko’tarilishiga xizmat qiladi. Prezidentimizning hayotbaxsh Murojaatnomasi kelgusidagi ishlarimizda dasturulamal bo’lib xizmat qiladi.

■ 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

MILLIY ARMIYA – TINCHLIGIMIZ POSBONI!

Dunyoda eng muqaddas, sharafli kasb bu – ona Vatanni himoya qilish, uning sarhadlarini ko’z qorachig’idek asrash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta’minlash bo’lsa kerak. Tinchlik hukmron yurtda esa doimo inson buyuk va ezgu orzularni ko’ngliga tugadi, o’z iste’dodi va salohiyatini to’la namoyon eta oladi.

Jahondagi vaziyat shiddat bilan o’zgarib, ayrim mintaqalarda ahvol keskinlashib borayotgan bir paytda Qurolli Kuchlarimiz saffarida xizmat burchini siddiqildan ado etayotgan mard va jasur o’g’lonlarimiz mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash yo’lida tunu kun xizmat qilmoqda. Ularning mashaqqatli xizmatlari tufayli yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo.

Bularning barchasi davlat rahbari rahnamoligida harbiy xizmatchilarning kecha-yu kunduz xizmatlarini sergaklik bilan olib borishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, harbiy jamoalarga uyg’oq ruhni olib kirish, jangovar tayyorgarlik, ta’minot va boshqa yo’nalishlarda to’plangan muammolarni hal qilish uchun amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar samarasidir.

Yurtimizda Vatan himoyachilari kuni bayrami tadbirlari ko’tarinki ruhda davom etmoqda. Tizimda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash, jismonan va ma’-

nan barkamol etib tarbiyalash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayapti. Harbiy qismlar infratuzilmasi yaxshilanib, shaxsiy tarkib har tomonlama qulay, barcha zarur shart-sharoitlarga ega shinam xizmat xonalari bilan ta’minlanmoqda. Mudofaa vazirligining Navoiy viloyatida joylashgan harbiy qismlari yirik sanoat obyektlari, jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining muhim ishlab chiqarish obyektlarini qo’riqlashga safarbar etilgan.

Jamiyatimizning ajralmas qismi bo’lgan hamda o’sib kelayotgan yosh avlod va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda haqiqiy jasorat maktabiga aylangan milliy armiyamizning tashkil etilganligiga joriy yil 14-yanvarda o’ttiz to’rt yil to’ladi. Shu qutlug’ sana munosabati bilan Prezidentimiz imzolagan Farmoyishga muvofiq Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, xalq va armiya yakdilligi-

ni yanada mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, aholi o’rtasida milliy Qurolli Kuchlarimiz nufuzining yanada oshirish maqsadida, “Milliy armiya-ona yurt qal’oni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida “Vatanparvarlik oyligi” tadbirlari tashkil etilmoqda.

Harbiy qism targ’ibot guruhi tomonidan oylik doirasida Qurolli Kuchlarning harbiy-jangovar qudratini oshirish, xizmatchilarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish bo’yicha ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar hamda davra suhbatlari o’tkazilyapti.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash maqsadida, harbiylarning farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun 28 ta imtiyozli kvotalar topshirildi. Yakuniga yetgan yilda qo’riqlanayotgan o’ta muhim toifalangan obyektlarda 693 marotaba qoidabuzarlik va moddiy boyliklarni noqonuniy olib chiqilishining oldi olindi. Qismlar harbiy xizmatchilarni mamlakatimizda o’tkazilgan turli jangovar tayyorgarlik va sport musobaqalarida yuqori tayyorgarlikka ega ekanliklarini amalda isbotlab, 25 marotaba faxrli o’rinlarni egalladilar.

Kombinatning 2, 3, 4-gidrometallurgiya zavodlarini ishonchli qo’riqlab kelayotgan harbiy xizmatchilar Toifalan-



gan obyektlarni qo’riqlash qo’shinlari qo’mondonligi harbiy qismlari miqyosida o’tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ko’rik-tanlovlarda munosib ishtirok etib, 9 marotaba faxrli o’rinni qo’lga kiritishdi. Zarafshon shahrida joylashgan harbiy qism xizmatchisi, kapitan Bahrom Joniyev Mudofaa vazirligi tomonidan o’tkazilgan “Eng ilg’or tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri” ko’rik-tanlovida birinchi o’rinni qo’lga kiritdi. Harbiy

xizmatchilarning oila a’zolari ishtirokida Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan o’tkazilgan “Ibratli harbiy oila” ko’rik tanlovida Sanoyevlar oilasi faxrli ikkinchi o’ringa munosib ko’rildi.

E’tiborli jihat, “NKMK” AJ tomonidan ajratilgan 6,2 milliard so’mdan ortiq mablag’lar hisobidan shaxsiy tarkib madaniy hordiq olishi uchun 250 o’rinli zamonaviy madaniyat markazi binosi, muzey va ruhiy zo’riqlashlarni yechish xonalari

qurilib, foydalanishga topshirildi. Navoiy viloyati harbiy-ma’muriy sektori tomonidan ajratilgan 4,7 mlrd so’m mablag’ hisobidan qism avtosaroyi zamonaviy holga keltirildi, shuningdek, mashinalarni doimiy jangovar shay darajada saqlab turish uchun yangi bino qurildi.

Yaqinda Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ham mamlakatimiz Qurolli Kuchlari faoliyatiga alohida to’xtalib, “Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do’sstlik va ahillikni yanada mustahkamlash Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirishni talab etadi. Buning uchun biz barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiramiz”, – deb ta’kidladilar.

Harbiylik insondan doimo mard, jasur va fidoyi bo’lishni talab qilgan. Mamlakatimizning muhim obyektlarini qo’riqlashdek burchini sharaf bilan ado etayotgan Vatan posbonlari buni yurakdan his etishmoqda. Ularning bu boradagi mahorati, tajribasi hamda harbiylik kasbidagi jasoratini har qancha e’tirof etsak arziydi.

Akmal DAMINOV,
Mudofaa vazirligining Navoiy shahridagi Qo’shima komandiri o’rinbosari.

YUKSAK NATIJALAR VA YANGI MARRALAR

2025-yil “Navoiyuran” davlat korxonasi uchun mazmunan boy, tarixiy natijalarga to’la va strategik ahamiyatga ega yil bo’ldi. Yangi O’zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari bilan hamnafas holda faoliyat yuritayotgan korxonamiz jamoasi yakunlangan yilda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, uran sanoatini rivojlantirish hamda xalqaro maydonda milliy manfaatlarimizni munosib ifoda etish yo’lida salmoqli yutuqlarga erishdi.

Davlatimiz rahbarining strategik rahnamoli-gi va uran sanoatiga qaratilgan doimiy e’tibori tufayli 65 yillik tarixga ega soha mutlaqo yangi rivojlanish bosqichiga ko’tarildi. 2025-yil “Navoi-yuran” uchun shunchaki navbatdagi hisobot yili emas, balki jamoaviy mehnat, fidoyilik va tizimli islohotlar samarasi yaqqol namoyon bo’lgan yil sifatida tarixda qolmoqda.

Korxona jahon uran bozoridagi mavqeini ya-nada mustahkamladi. Mahsulotimizga bo’lgan xalqaro talab ortib, eksport geografiyasi kengay-di. Ayni paytda uran mahsulotlari AQSh, Xitoy, Yaponiya, Kanada, Yevropa va Osiyoning qator rivojlangan davlatlariga yetkazib berilmoqda.

2025-yil xalqaro moliya bozorlariga integratsi-yalashuv yo’lida muhim buriilish bo’ldi. “Navoi-yuran” davlat korxonasi ilk bor London Stock Exchange xalqaro birjasida 300 million dollar miqdoridagi 5 yillik yevrobondlarni muvaffaqiyatli joylashtirdi. Ushbu debut yevrobond O’zbekis-ton korxonalari orasida eng past kupon stavka bilan joylashtirilgan obligatsiya sifatida e’tirof etildi. Shuningdek, Standard&Poor’s Global Ratings agentligi tomonidan kredit reytingimiz prognozining “barqaror”dan “ijobiy”ga ko’tarilishi korxonada moliyaviy barqarorlik, shaffoflik va samarali boshqaruv ta’minlanayotganining xal-qaro e’tirofidir.

Xalqaro reyting agentligi Sustainable Fitch tomonidan “Navoiyuran” davlat korxonasining ESG (Environmental, Social, Governance) rey-tingi tasdiqlanib, umumiy ball 55 dan 61 gacha oshirilgani quvonchli hol, albatta. Korxonaning ESG reytingi “3” darajada saqlab qolindi.

Sustainable Fitch bahosiga ko’ra, ushbu na-tija “Navoiyuran” DKning aniq va tizimli barqa-rorlik strategiyasi, ESG yo’nalishida olib borila-yotgan izchil transformatsiya hamda korxonada tashkil etilgan kuchli korporativ boshqaruv tizimi samarasi hisoblanadi. Reyting ballining oshirili-shi korxona jamoasining ESG boshqaruvini ta-komillashtirish borasidagi amaliy sa’y-harakatlari xalqaro miqyosda e’tirof etilganini tasdiqlaydi.

Xalqaro hamkorlik va investitsiya yo’nalishida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Orano Gro-up va ITOCHU Corporation bilan hamkorlikda

“Nurlikum Mining” qo’shma korxonasi doirasida-gi sheriklik munosabatlari muvaffaqiyatli yakun-landi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida korxonada Loyiha ofisi tash-kil etildi. Qisqa muddat ichida ushbu ofis xorijiy davlatlar va yetakchi kompaniyalar bilan ham-korlikni kengaytirish, investitsion va qo’shma loyihalarni ilgari surishda muhim platformaga aylandi.

Bugungi kunda “Navoiyuran” davlat korxona-sining uran yo’nalishida 20 dan ortiq davlatlarda-gi xorijiy hamkorlar bilan ishchi aloqalari shakl-lanirildi. Kanada, AQSh, Avstraliya, Namibiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlarning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlik munosa-batlari yo’lga qo’yildi. Korxona vakillari joriy yilda dunyoning turli nuqtalarida o’tkazilgan 6 ta nu-fuzli xalqaro kongress, ko’rgazma va forumlarda ishtirok etib, “Navoiyuran” brendini xalqaro may-donda munosib namoyon etdilar.

Ishlab chiqarish ko’rsatkichlari yil yutuqlari-ning amaliy ifodasi bo’ldi. Hisobot davrida mah-sulot ishlab chiqarish hajmi 13,8 trillion so’mini tashkil etdi. Tabiiy uran ishlab chiqarish, geolo-giya-qidiruv ishlari, eksport va investitsiya ko’r-satkichlari rejalari ortig’i bilan bajarildi. Uran konlarimiz xalqaro standartlarga muvofiq JORC kodeksi asosida baholandi hamda geologiya-qidiruv ishlari doirasida uran zaxiralari 70 ming tonnadan ortiq miqdorida davlat zaxiralar komi-siyasidan o’tkazildi. Yangi istiqbolli “Qizilqoq” va “Sharqiy Agron” konlarida uran qazib olish ishlari boshlandi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 16 ta loyi-ha amalga oshirilib, 121,5 milliard so’mlik mah-sulot ishlab chiqarildi. Davlat budjetiga 5,5 trillion so’mdan ortiq to’lovlar amalga oshirilishi kutil-moqda. Korxona sof foydasi 5,2 trillion so’mdan ortiq bo’lishi prognoz qilinmoqda. Ushbu natijalar “Navoiyuran” davlat korxonasining mamlakatda-gi eng yirik soliq to’lovchilar orasida TOP–3 qa-toridagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, korxonada xalqaro ISO 37001 va ISO 37301 standartlari joriy etildi. Natijada amal qilayotgan xalqaro ISO standartlari soni 7



Djamal FAYZULLAYEV,
“Navoiyuran” DK Bosh direktori

taga yetdi. Bu halollik, shaffoflik va komplayens madaniyati korxona faoliyatining ustuvor tamoyili ekanligini tasdiqlaydi.

Albatta, bu yutuqlarning barchasi — ishlab chiqarish maydonlarida, geologiya ekspedit-siyalarida, laboratoriyalar, sexlar va boshqaruv tizimida sidqidildan mehnat qilayotgan ko’pming sonli jamoamizning fidoyiligi samarasidir. Xo-dimlarimiz — korxonamizning eng katta boyligi, ishonchi va tayanchidir.

Yangi 2026-yilda oldimizda ulkan rejalar va yangi marralar turibdi. Kelgusida uran ishlab chi-qarish hajmini oshirish, yangi konlarni o’zlashti-rish, geologiya-qidiruv ishtarini yanada kengay-tirish, investitsiya va raqamli transformatsiya ja-rayonlarini jadallashtirish ustuvor vazifalar bo’lib qoladi.

Bugun “Navoiyuran” nafaqat mamlakat iqtiso-diyotining tayanch korxonalaridan biri, balki ja-hon uran bozorida munosib o’ringa ega, xalqaro moliya va sanoat maydonida ishonch qozongan zamonaviy kompaniya sifatida e’tirof etilmoqda. Bu e’tirof ortida minglab mehnatkashlarning fi-doyiligi, bilim va tajribasi, islohotlarga ochiqlik va yangilikka intilish ruhi mujassam.

Ishonch bilan ayta olamanki, oldimizga qo’-yilgan ulkan maqsadlarga birgalikda, yagona jamoa bo’lib, qat’iyat va ishonch bilan yetamiz. Chunki Vatani ravnaqiga xizmat qilish, soha ke-lajagi uchun mas’uliyat bizni birlashtirib turibdi.

2026-yil esa “Navoiyuran” uchun yangi imko-niyatlar, yangi loyihalar va yangi zafarlar yili bo’-lishiga ishonamiz.

Yoshi ulug’ keksalar, nafaqaxo’rlar, mo’tabar bobo-buvilarimizga izzat-ikrom ko’rsatish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash, bevosita ishtiroklarida turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etib, hayotlarini mazmunli o’tkazishlariga ko’maklashish azaliy qadriyat sifatida eng ulug’, savob ishlardandir. Faxriylar Kengashining o’tgan yilgi faoliyatini sarhisob qilarkanmiz, amalga oshirgan xayrli ishlarimizdan ko’nglimiz bir qadar to’ldi.

FAXRIYLAR HAMISHA E’ZOZDA



Darvoqe, yil davomida kombinat mehnat fax-riylari istiqomat qilayotgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Nurobod, Marjonbuloq, Zafarobod, Zarkent shahar va qo’rg’onlarida “NKMK” AJ va kombinat xodimlari kasaba uyushma Kengashi ko’magida ko’plab tadbirlar, intellektual o’yinlar, sport musobaqalari tashkil etilib, bellashuvlar g’oliblariga esdalik sovg’alari topshirildi.

Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari hamda O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni bayramlari faxriylarimiz uchun tashkiliy ji-hatdan alohida esda qoladigan darajada nishon-landi. Ana shu bayramlarda ikki ming nafardan ortiq mehnat faxriylari uchun dasturxon yozi-lib, ularga osh tortildi. Navoiy shahrida bo’lib o’tgan shodiyona tadbirlarida faxriylarni O’zbekiston Qahramonlari – “Navoiy kon-metallurgiya kom-binati” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov va O’zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi raisi A.Farmonovlar qizg’in tabrikladilar. Bu tadbirlarda o’zlarining boy hayo-tiy va kasbiy tajribalarini ishlab chiqarishda band bo’lgan yoshlarga o’rgatishda namuna bo’layot-gan o’n nafar faxriylarga konchilik va metallurgi-ya sanoati faxriylari Kengashining “Faol faxriy” ko’krak nishoni tantanali tarzda topshirildi.

Xotira va qadrlash kuni arafasida Ikkinchi

jahon urushi davri mehnat fronti ishtirokchilari bo’lgan barcha faxriylarimizga moddiy yordam sifatida pul mablag’lari berildi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki kom-binat faxriylari ko’pchilikni tashkil qilmaydigan Toshkent, Samarqand, Termiz shaharlarida umr-guzaronlik qilayotgan nafaqaxo’rlar ham e’tibor va g’amxo’rlikdan chetda qolmayaptilar. Ulkan korxona asosi bo’linmalari bilan hamkorlik yax-shi yo’lga qo’yilib, Yangi yil arafasida ming nafar pensionerga bayram sovg’asi hadya etildi. Yil davomida yolg’iz keksalar, moddiy yordamga muhtoj bemorlar xolidan xabar olinib, oziq-ov-qat to’plamlari berildi. To’rt yuz nafar pensioner uchun Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Nurota kabi tarixiy shaharlarga uyushtirilgan sayohat-dan uning ishtirokchilari behad minnatdor bo’-lishganliklarini izhor etdilar. Eng muhimi, faxriyla-rimizga tavalludlarining yubiley sanasida esdalik sovg’alari topshirish an’anaga aylandi.

Biz keksalari qadr topgan yurtida mehr-oqibat, qut-baraka, tinchlik-xotirjamlik hukmron bo’lishi-ni yaxshi bilamiz hamda butun faoliyatimizni ana shunday ezgu ishlarga yo’naltiramiz.

Olgas LUKINA,
faxriylar Kengashi Navoiy filiali
maslahatchisi.

ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ ИССЛЕДОВАНИЯ — ОСНОВА ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО ПРОИЗВОДСТВА

Горно-металлургическая промышленность многогранна и включает в себя сложные процессы. Поиск полезных ископаемых, подсчет их запасов, выбор технологий переработки, соответствие готовой продукции установленным Международным стандартам и т.д. относятся к числу важнейших задач горно-металлургической промышленности. В современности, когда промышленность и наука бурно развиваются, идти в ногу с мировым сообществом считается важнейшей задачей любого современного и высокотехнологичного промышленного предприятия.

Как всем известно, АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» является одним из ведущих предприятий горнодобывающей промышленности мира, имеет значительный удельный вес в экономике Республики Узбекистан и считается одним из основных предприятий, обеспечивающих золотовалютный запас. Выпускаемая готовая продукция полностью соответствует международным стандартам и получила признание многих престижных мировых компаний. При производстве такой конкурентоспособной продукции важно, чтобы научные достижения применялись непосредственно в производстве.

В Центральной научно-исследовательской лаборатории (ЦНИЛ) научные исследования ведутся на высоком уровне. В течение 2025 года три лаборатории - аналитическая, водная и лаборатория радиационно-дозиметрического контроля и охраны окружающей среды – ЦНИЛ прошли подтверждение инспекционного контроля в сфере технического регулирования компетентности.

В течение 2025 года технологическая

лаборатория ЦНИЛ проводила следующие исследования: по перерабатываемым и планируемым к переработке рудам различных месторождений, включая различные руды месторождения Реваште, первичные руды месторождений Балпантау и Бесанпантау; по улучшению показателей извлечения золота на действующих производствах с выдачей рекомендаций по проведению укрупненных полупромышленных исследований, а также по определению оптимальной технологии переработки бедных руд месторождений Мурунтау и Мютенбай, планируемых к переработке на проектируемом ГМЗ-8.

Аналитический контроль всего технологического процесса горно-металлургического производства включает в себя применение фундаментальных теорий и практических методов экспериментальной науки по определению химического состава проб и продуктов. В этих процессах анализируется все, что связано с получением золота, то есть от геологических исследований до анализа полученной готовой продукции - аффинированно-

го золота. Полученные результаты химических анализов позволяют объективно оценить правильность протекания всего технологического процесса, определение качества готовой продукции, а также ее соответствие установленным Международным нормам.

В течение 2025 года аналитическая лаборатория проводила актуализацию и разработку более 35 «Методик выполнения измерений» (МВИ). Из них - МВИ массовой доли платины пробирно-эмиссионным спектральным методом с индуктивно связанной плазмой, МВИ массовой доли палладия атомно-абсорбционным методом, МВИ массовой концентрации лигносульфаната натрия в жидкой фазе пульпы и технологических растворах фотометрическим методом, МВИ массовой доли нитрат-ионов в пробах почв, грунтов и отходов производства фотометрическим методом и так далее.

Для выполнения анализов на содержание золота и серебра в рудах с различным минералогическим составом и продуктов производства золота проводятся подбор шихты (пропорциональное соотношение в ней реактивов), подбор времени плавления, оценка надёжности полученных результатов - возможной вариации определяемой величины при заданной доверительной вероятности. Ведутся исследовательские работы по определению содержания золота в рудах, хвостовых сбросах, ионообменных смолах, пенных продуктах и других технологических продуктах АО «НГМК».

Сегодня вся цепочка действий при проведении пробирного анализа организована так, что использование ручного труда сведено к минимуму. Каждый этап

анализа оснащён самым современным оборудованием, вспомогательными устройствами, что соответствует требованиям международных стандартов. Данные МВИ, разработанные в ЦНИЛ, гарантируют достоверность полученных результатов анализа. Также подтверждением высокого уровня пробирного анализа в аналитической лаборатории ЦНИЛ является участие в межлабораторной аттестации стандартных образцов по проекту «Разработка государственных стандартных образцов (ГСО)» шести типов на золото и серебро. На данный момент аналитическая лаборатория ЦНИЛ имеет свидетельство об участии в межлабораторной аттестации Государственных стандартных образцов в рудах на оксиды сопутствующих компонентов - титана, алюминия, кремния, ванадия, фосфора, кальция, магния, железа - химическим и физико-химическим методами.

Преимуществом применения химических методов анализа в АО «НГМК» является простота используемого оборудования и высокая точность, что особенно удобно при проведении серийных анализов. С помощью химических методов проводится анализ более 70 химических элементов в жидких пробах гидрометаллургического производства.

Содержание основного металла в АО «НГМК» определяется химическим методом анализа, и товарный контроль является заключительным этапом всего технологического цикла добычи и переработки руд. В этом виде контроля важны два фактора - своевременная выдача результатов и 100% гарантия достоверности анализов. Для проведения данных работ привлечены наиболее квалифици-

рованные и надёжные специалисты лабораторий подразделений АО «НГМК». Также химическим методом крупноточные выполняются необходимые оперативные анализы для оперативного контроля технологических процессов при полупромышленных испытаниях технологических схем и процессов. Осуществляется входной контроль реагентов и веществ, используемых в технологических процессах всего АО «НГМК».

Совершенствование контроля связано с тенденцией замены достаточно длительных и трудоемких химических методов на инструментальные методы. В аналитической лаборатории создан измерительный комплекс на базе современных приборов. Оснащение аналитической лаборатории современным оборудованием позволяет оперативно и качественно решить все поставленные аналитические задачи по определению содержания редкоземельных элементов и элементов примесей вплоть до следовых концентраций, как в твердых так и в жидких пробах.

На сегодняшний день все научно-исследовательские результаты получают замером величин на самом современном лабораторном оборудовании, среди которых SC-144 DR - анализатор двойного диапазона определения серы и углерода, анализатор Agilent 7700 ICP-MS, энергодисперсионный рентгенофлуоресцентный спектрометр SHIMADZU EDX-7000, относящиеся к инструментальным приборам и являющиеся наиболее информативными и экспрессными методами многоэлементного анализа в готовой продукции.

Основными преимуществами замены

классических химических методов анализов на инструментальные являются увеличение оперативности и количества анализируемых проб, экспрессность и снижение времени замера, расходных материалов и химикатов.

В течение 2025 года водная лаборатория проводила исследования по изучению возврата производственных стоков в гидрометаллургический процесс.

Состав сырья, поступающего на предприятия отрасли, разнообразен, нормативы на ведение технологического процесса также неодинаковы. Состав полупродуктов и готовой продукции столь различен, что постоянно существует необходимость в разработке и аттестации новых методов выполнения измерений, пригодных для анализа различных производственных продуктов АО «НГМК».

На основании применения научно-исследовательских результатов в развитие горно-металлургического производства, наряду с освоением самых передовых технологий, применяемых в мире по добыче золота, осуществляется контроль за внедрением этих технологий на основных регламентах. Улучшаются параметры технологии там, где это необходимо, и исследуются их наиболее эффективные аспекты.

С помощью проведения фундаментальных исследований в области горно-металлургического производства достигается интеграция науки и производства, что, несомненно, приведёт к мировым достижениям и признанию.

Машхур КУРБАНОВ,
начальник Центральной научно-исследовательской лаборатории
АО «НГМК».

■ 2025-yil sarhisobi

GEOLOGIYA SOHASIDA ISLOHOTLAR: YANGI IMKONIYATLAR VA AMALIY NATIJALAR

Davlatimiz rahbari tomonidan geologiya sohasini modernizatsiyalash, investitsiyalar jalb qilish hamda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Sohaga katta mablag' ajratilib, texnologiyalarni yangilash, ilm-fan yutuqlarini tatbiq etish, kadrlar tayyorlash yuzasidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda xuddi shunday islohotlar "NKMK" AJning Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida ham amalga oshirilmoqda.

Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasining asosiy vazifasi – kombinatning mavjud resurs bazasini kengaytirish bo'lib, bu mineral resurslar konlari va ularning texnologik xususiyatlarini baholash, shuningdek, yangi aniqlangan zaxiralarni asosida alohida ishlab chiqarish uchastkalari va konlarda geologik va mineral xomashyoning texnologik xususiyatlarini aniqlash hisobidan amalga oshiriladi. So'nggi yillarda GQE mutaxassislari tomonidan "Qoraqo'ton", "Yangi Dovon", "Kolchiqov", "Roxat", "G'arbiy Roxat", "Beshashi", "Charmitan", "Qoqpatas" konlarida geologiya-qidiruv ishlari olib borildi.

Hozirgi kunda geologiya qidiruv ishlari zamonaviy talablar asosida, ya'ni xalqaro standartlarga (JORC kodeksi) muvofiq olib borilmoqda, faoliyat to'liq raqamlashtirilgan. Rivojlangan mam-lakatlarda qo'llaniladigan geoaxborot texnologiyalar va dasturiy ta'minot keng qo'llanilmoqda. 3D geologik modellar asosida kon ishlarini rejalashtirilishi bunga yorqin misoldir. Shuningdek, geologik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va boshqarishni ta'minlashga yordam beradigan dasturlarni joriy etish ishlari olib borilayotgani kombinatning yagona geoaxborot muhitini yaratish imkonini beradi.

Raqamlashtirish bosqichida proba olish, geologik hujjatlar, probalarni ishlash, laboratoriyaga jo'natish va laboratoriya tahlili bilan bog'liq umumiy ma'lumotlar bir joyda, ya'ni yagona ma'lumotlar bazasida yig'iladi. Geologik ma'lumotlarni raqamlashtirishni tugatgandan so'ng, barcha qog'oz hujjatlar elektron shaklga o'tkaziladi. Na-

tijada, geologik kartalar va kesmalarni qo'l bilan tuzishga ehtiyoj qolmaydi. Burg'ilash, geofizika, laborator-tahlil va topografiya-geodeziya ishlari yagona standartlar asosida olib borilmoqda. Boshqaruv jarayonlari markazlashgan axborot tizimlariga ko'chirildi, texnik ta'minot va jihozlar zamonaviylashtirildi. Hozirgi kunda GQEda yuqori mahsuldorlikka ega 23 turdagi zamonaviy burg'ilash va boshqa texnikalar mavjud bo'lib, bu geologiya-qidiruv ishlarining unumdorligini oshirishga yordam bermoqda.

Keyingi yillarda maydonlardagi burg'ilash, geofizika, topografiya-geodeziya va logistika jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mo'ljallangan turli avtotransport vositalari va maxsus uskunalar keltirildi. Ekspeditsiya tasarrufiga 2 ta avtobus, 3 ta xizmat avtomashinasi, 2 ta yuk avtomobili, 3 ta buldozer, g'ildirakli ekskavator, 6 ta vaxta avtomobili, 5 ta bort mashinasi, 4 ta avtokran, avariya va ta'mir ishlari uchun maxsus ustaxona mashinalari, 3 ta texnik suv va yoqilg'i sistemalari, 2 ta burg'i qurilmalari, 6 ta karotaj stansiyalari, tyagach, kran-manipulyator va yarimpritsep-konteyner tashuvchi zamonaviy texnikalar olib kelindi.

So'nggi olti yilda qariyb 80 milliard 861 million so'mlik zamonaviy texnika va avtotransport vositalari yangilandi. Bu ekspeditsiyaning texnik imkoniyatlarini kengaytirib, qidiruv ishlarining sifatini va ishonchligini yuqori darajaga olib chiqdi.

Yer qa'ini geologik o'rganish va mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishga qaratilgan yillik dastur doirasida

ekspeditsiyamiz tomonidan qazilma konlarini qo'shimcha qidiruv ishlari izchil, tizimli va ilmiy metodologiya asosida amalga oshirilmoqda. 2024-yil yakunida ekspeditsiya obyektlarida 59 981 pogon metr kolonkali burg'ilash ishlari bajarilib, yillik reja to'liq ado etildi. 2025-yilda esa qo'shimcha qidiruv ishlari yana jadallashib, jami 91 300 pogon metr burg'ilash ishlari amalga oshirildi. Shundan 76 113,3 pogon metr kolonkali va 15 187 pogon metr RS (REVERS Circulation drilling) burg'ilash ishlariga to'g'ri keladi.

Qo'shimcha qidiruv ishlari chog'ida to'planayotgan burg'ilash korni, mineralogik-geokimyoviy tahlillar va geofizik parametrlar xalqaro CRIRSCO/JORC standartlari asosida mineral resurslarning ishonch darajasini baholash va ularni toifalash uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda geologiya sohasida qator yangi innovatsion texnologiyalar qo'llanilib, infratuzilma obyektlardan samarali foydalanilmoqda. Xususan, zamonaviy laboratoriyalar va ma'lumot-

beradi. Kern namunalarni saqlash omborxonasi geologik qidiruvlarda olingan namunalarni xavfsiz va samarali saqlash uchun barpo etiladi.

Bu obyektlar Micromine, GEOBANK va Leapfrog kabi zamonaviy axborot tizimlari bilan integratsiyalanadi, bu esa



xodimlari dala sharoitida ishlashi sababli, barcha brigadalar zamonaviy jihozlangan, yashash uchun mo'ljallangan vagonlar bilan ta'minlangan. 2024-yilda har birining narxi 297 million 350 ming so'mdan 8 ta yashash vagonlari keltirilib, brigadalarda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarning turarjoy sharoiti sezilarli darajada yaxshilandi.

Kelgusida geologiya sohasini rivojlantirishda qator ustuvor vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Sohani zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, geologik qidiruv va qo'shimcha qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy burg'ilash uskunalar, laboratoriya jihozlari va raqamlashtirilgan geologik ma'lumotlar bazasi kengaytirilishi rejalashtirilmoqda.

Bu jarayonda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. AI algoritmlari geologik va geofizik ma'lumotlarni tahlil qilib, qazib olish uchun eng samarali strategiyalarni taklif qiladi. Shuningdek, AI geologik xavf-xatarlarni prognozlash, maydonlarning ekspluatatsion holatini monitoring qilish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Ustuvor islohotlar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish geologiya sohasini ilmiy va texnologik jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish va mineral-xomashyo resurslarini barqaror boshqarishga xizmat qiladi.

To'liq BOBONOV,
"NKMK" AJ Geologiya-qidiruv
ekspeditsiyasi boshlig'i.

■ Zamon bilan hamnafas

ISHLAB CHIQUARISHNI RAQAMLASHTIRISH

inson omilini kamaytirib, samaradorlikni keskin oshiradi

Axborot texnologiyalari hayotimizga shunchalik chuqur kirib keldiki, bugun ularsiz ishlab chiqarish yoki boshqaruv tizimini tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, "aqlli" texnologiyalar ishlab chiqarish subyektlariga mijoz va hamkorlar, shuningdek, davlat idoralari bilan ortiqcha qog'ozbozlik, tezkor va shaffof munosabat o'rnatish imkonini bermoqda. Bu jahon iqtisodiyoti raqamli inqilob bosqichiga qadam qo'yganidan dalolatdir.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar tahlillariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshirar ekan. Shu bois yurtimizda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilyapti. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bu borada salmoqli natijalar qo'lga kiritilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot, bu alohida faoliyat turi emas, balki sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi, – deydi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi boshlig'i Vohidjon Po'latov. – Oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblanadi, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot va ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

TRANSFORMATSIIYA JARAYONI TEZLASHDI

Navoiy kon-metallurgiya kombinatni raqamli transformatsiya qilish dasturlari ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Birgina, 2025-yilda raqamlashtirish dasturi doirasida "Raqamli 7-gidrometallurgiya zavodi" loyihasi amaliyotga tatbiq qilindi. Bu jarayonda intellekt va raqamli texnologiyalardan unumli foydalanib, zavoddagi mavjud ma'danni maydalash tegirmonlarining boshqaruv tizimlari modernizatsiya qilinib, barcha texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari zavodning operativ dispetcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimiga integrallashtirildi.

– Zavodimiz to'liq raqamlashtirilib, barcha uchastka va laboratoriyalar yagona lokal tizimga



ulandi, – deydi zavod bosh mutaxassisi Abdumalik Sattorov. – Ularni nazorat qilish dispetcherlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Dunyoda texnologik chiqindidan oltin ajratib olish bo'yicha 18 ta zavod bo'lsa, ular orasida bizning korxona eng yirigi hisoblanadi. Zavodimizda ishlab chiqarish to'liq raqamlashtirilishi evaziga inson omili uch-to'rt barobarga kamayib, hisobotlar sun'iy intellekt orqali olib borilyapti.

Raqamlashtirish loyihalaridan yana biri kon-geologik axborot tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi. Bu maxsus dasturiy ta'minot ma'danning tarkibi to'g'risidagi ma'lumot orqali konlar, karyer va yer osti shaxtalarining "3D" modellari yaratish imkonini bermoqda. Kombinatta sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy qilish maqsadida, AQShning "McKinsey & Company" kompaniyasi bilan hamkorlikda "NKMKni rivojlantirish - 2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Unda kombinatni rivojlantirishning geologiya-qidiruv ishlarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda sun'iy intellektdan samarali foydalanish, takomillashgan investitsiyaviy dasturini ishlab chiqish kabi asosiy yo'nalishlar qamrab olingan.

SAMARALI BOSHQARUV TIZIMI

Bugungi kunga qadar kombinatning ishlab chiqarish va boshqarish bo'g'inida 20 dan ortiq axborot tizimlari joriy etildi. Bu esa o'zining samarasini bera boshladi. Misol uchun, soliq hisobotini shakllantirish muddatlarini qisqartirish

maqsadida soliqlarni hisoblash va uni shakllantirish jarayoni avtomatlashtirilgach, 3 milliard so'm iqtisod qilinib, hisobotlar shakllantirilishi vaqti bir oyga qisqartirildi. Bunday yuqori samaradorlik xarid jarayonlarida ham kuzatilyapti. Chunki xaridlar bo'yicha arizalar elektron shaklda olib borilib, Markaziy moddiy-ta'minot bazasi tovarshunoslarining hisobi to'liq avtomatlashtirildi. Elektron savdo maydonlarini ushbu tizim bilan integratsiyalash yo'lga qo'yildi.

Xuddi shuningdek, texnologik jarayonlar raqamlashtirilishi tufayli texnologik uchastkalarining umumiy unumdorligi 5 foizgacha oshdi va elektr energiya resurslari 3 foiz tejashga erishildi. Eng muhimi, ishlab chiqarish jarayonidagi uskunalarining to'xtab qolishi kamaydi. Natijada yiliga 6,1 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot tizimi gidrometallurgiya zavodlaridagi ishga tushirilgan yangi tegirmon bloklarida joriy etildi. Bu esa uskunalarining optimal ish rejimini ta'minlash va ma'danni maydalash jarayoni ko'rsatkichlarining texnologik reglamentga muvofiqligini uzluksiz nazorat qilish imkonini berapti.

Aytish joizki, kombinatda raqamlashtirish jarayoni yildan-yilga chuqurlashtirilmoqda. Oxirgi yetti yil ichida 2, 5, 6, 7-gidrometallurgiya zavodlarida yangi ishga tushirilgan tegirmon bloklarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilgan bo'lsa, kelgusida yana 12 ta yo'nalish bo'yicha raqamlashtirish dasturlari amalga oshiriladi. Aniqlik, ishlab chiqarishga 116 ta zamonaviy

geologik ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va boshqarish jarayonini optimalashtiradi.

Davr talabidan kelib chiqib, geologiya sohasida raqamlashtirish (digitalization) keng yo'lga qo'yilmoqda. Geologik sinov natijalari, burg'i jurnallari va laboratoriya ma'lumotlari elektron bazaga kiritiladi. Zamonaviy axborot tizimlari va platformalar, geologik ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va 3D modellar orqali

vizualizatsiya qilish imkonini beradi.

Shunisi quvonarlaki, kadrlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sohani zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, geologik qidiruv va qo'shimcha qidiruv ishlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida geologiya-qidiruv ishlariga yosh kadrlar jalb etilmoqda.

Ekspeditsiyalar va ilmiy-tadqiqot markazlari qoshida yosh mutaxassislarni uchun amaliyot o'tash, stajirovka va tajriba o'rnatish imkoniyatlarini kengaytirilmoqda. Zamonaviy burg'ilash uskunalarini, laboratoriya jihozlari hamda raqamlashtirilgan geologik ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv-seminarlar muntazam ravishda tashkil etilmoqda. Yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ish o'rinlariga tanlovlar e'lon qilinmoqda, iqtidorli mutaxassislarni uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimlari kengaytirilmoqda.

Ekspeditsiya burg'ilash brigadalari

giya zavodlari faoliyati "aqlli" tizimlar yordamida takomillashtirib borilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Negaki, 100 dan ortiq dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, texnologik jarayonlarni tahlil qilish va boshqarish bo'yicha 100 mingdan ortiq o'chov asboblari o'rnatildi. Masalan, 6-gidrometallurgiya zavodi 1-tegirmon blokida texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (SCADA) to'liq raqamlashtirilishi hisobiga yiliga o'rtacha 40 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda. Natijada uskunalarining to'xtab qolishi kamaydi, texnologik uchastkalarining umumiy unumdorligi 5 foizga oshdi.

Sanoat obyektlarida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish orqali ishchilar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, intellektual video tahlil tizimlari bu jarayonlarni avtomatlashtirish va samarali nazorat qilish imkonini bermoqda. 3-gidrometallurgiya zavodida texnologik jarayonlarni boshqarish uchun sun'iy intellekt asosida raqamli yordamchi tizimning joriy etilishi soha istiqbolida muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Ushbu yechim zavodning raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi va sanoatda raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Aytaylik, sun'iy intellekt asosida konlarda qayt yul tashuvchi transport vositalari haydovchilarini nazorat qiluvchi video tahlil (DMS) tizimini joriy qilish avtoag'dargichlar haydovchilarining faoliyatini kuzatish, xavfsizlik qoidabuzarliklarini avtomatik ravishda aniqlash imkonini berapti.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, "aqlli" dasturlardan samarali foydalanish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ma'danni qayta ishlashda texnologik jarayonlarning uzluksizligi va barqarorligini ta'minlaydi, shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu esa kombinatni yanada rivojlantirish va jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Umuman olganda, kombinat tizimidagi ishlab chiqarish va xizmatlar raqamlashtirilib, zaruriy axborot dasturlari bilan to'liq ta'minlanmoqda. Buning evaziga soha rivoji yangi bosqichga ko'tarilib, xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritilayotir. Bunday salmoqli natijaga mahalliy kadrlarning bilimi va fidoyi mehnati evaziga erishilayotgani, ayniqsa, quvonarlidir.

Azamatz ZARIPOV.

